



DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL SKILLS IS AN IMPORTANT FACTOR IN THE FORMATION OF THE COGNITIVE CHARACTERISTICS OF THE TEACHER

Haydarov Komil Donabayevich

Associate Professor, Samarkand Regional Center for Retraining and Advanced Training of Public Educators, Candidate of Philosophical Sciences

Annotation.

This article discusses an important factor in the reform of the public education system of the country - the pedagogical skills of teachers, the development of their cognitive characteristics, ways and means to achieve this, the specifics of the process of professional development of teachers, some aspects of its reform. described in detail.

Keywords: Public education system, pedagogical skills, cognitive characteristics of the teacher, creativity of the teacher, professional development, ideological training.

Mamlakatimizda keyingi uch yilda ta'lif tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar pirovardida uning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilganligi barchaga ayon. Bunday ezgu maqsadga faqatgina o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirish orqali erishish mumkin. Agar o'qituvchida pedagogik mahorat yetishmasa, ta'limda samara haqida gap bo'lishi mumkin emas. Pedagogik mahorat eng avvalo o'qituvchining qiyofasi (imiji), uning ilmiy va ma'rifiy salohiyati, g'oyaviy yetukligi, shaxsiy sifatlari va kognitiv xususiyatlarining qay darajadaligiga bog'liq, albatta.

Mahoratlari o'qituvchi qaysidir ma'noda qobiliyatli ham bo'ladi. Qobiliyat esa mehnat orqali o'z kasbining ustasi bo'lish, "kasbga sho'ng'ib ketish" degani. Pedagoglik kasbini tanlagan kishi o'z maqsadiga erishish uchun tinmay izlanishi, o'rganishi, malaka va ko'nikmalarini doimiy ravishda oshirib borishi lozim. Chunki zamon bir joyda to'xtab turmaydi, u doimo olg'a qarab ketadi. Shu bois, davr o'qituvchi oldiga yangidan yangi vazifalar qo'yadi. Bugungi o'qituvchi zamonga "moslashish" emas, undan bir qadar oldinda yurishga intilishi kerak. Dono xalqimizning "Bilgan kishi "bildim" demas, bildim desa – bilgani emas", degan hikmati ham aslida shuni nazarda tutadi. Bugun pedagogning kognitiv xususiyatlari va, pirovardida, pedagogik mahoratini oshirishga uchta muhim talab qo'yilmoqda: 1) har bir o'qituvchi o'z fanini puxta bilishi lozim; 2) bilimini o'quvchiga yetkazib berish mahoratiga ega bo'lishi kerak; 3) psixologik (ruhiy) tayyorgarlikka ega bo'lishi zarur. Shu talablar bajarilsa, o'qituvchi faoliyatida ijobiy o'zgarishlar kuzatila boshlaydi.

Tahlil qilib ko'raylik. Dastlabki ikki talab o'z-o'zidan tushunarli, uchinchi talab, ya'ni o'qituvchida psixologik hozirlilik zarurligini hamma ham tushunavermaydi. Tasavvur qiling: sinfda 25-30 nafar o'quvchi bo'lsa, ularning har biri o'zgacha olam, o'qituvchi har qaysisining qalbiga yo'l topishi kerak, ularning har biriga individual yondashuv zarur. Buning uchun o'qituvchidan nima talab etiladi? – Ruhiy tayyorgarlik, albatta. Shu ma'noda bugungi pedagog ma'lum darajada ruhshunos bo'lishi kerak, degan talab to'g'ri va o'rinnlidir.

Fikrimizcha, uchinchi talabga qo'shimcha sifatida mafkuraviy tayyorgarlikni ham kiritish zarur, chunki o'qituvchida muayyan darajada falsafiy mushohada yoki g'oyaviy saviya yetishmasa, u o'qitgan o'quvchidan kelajakda munosib kadr yetishib chiqishi qiyin.

Falsafiy va pedagogik mazmundagi adabiyotlar "Pedagogik mahorat" degan iboraning yangi emasligini ko'rsatadi. Avvalgi davrlarda ham mahoratli o'qituvchilar bo'lgan. Mahoratli muallim hyech qachon shogirdlari xotirasidan o'chmaydi, ular mahoratli ustozlarini doimo chuqur ehtirom va minnatdorlik bilan tilga oladilar. Sharq mutafakkiri Nosir Xusrav "Kimki shogirdlikka chin dildan shod, bir kun o'zi ham bo'lg'usi ustod", deganda shuni nazarda tutgan.

Bugun ta'liming muhim bo'g'inlaridan biri - malaka oshirish pedagogik mahoratni oshirishning bir butun, yaxlit jarayoni bo'lib, uning pirovard natijasi o'qituvchining improvizasion xususiyatlarini rivojlantirishgina emas, balki eng avval pedagogik-psixologik, metodik va mafkuraviy tayyorgarlik



darajasini ko'tarish, unda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar qaror topishiga erishishdan iborat bo'lishi lozim.

Dunyoning eng taraqqiy etgan davlatlaridan biri bo'lgan Germaniyaga safarimiz chog'ida o'qituvchilik ushbu yurtda o'ta mas'uliyatli, mashaqqatli, shu bilan birga eng obro'-e'tiborli kasb sanalishiga guvoh bo'ldik. Ushbu kasbni tanlagan odam ko'p mehnat qilishi, o'z ustida tinmay ishlashi, o'z malakasini doimiy oshirib borishi talab etiladi. Ushbu mamlakatda masofadan turib malaka oshirish, masofadan o'qitish tizim sifatida shakllangan. Uning eng ixcham va qulay shakllari amaliyotga joriy etilgan. Masalan, Berlindagi LIZUM (mintaqalararo pedagogika instituti)da asosan multiplikatorlar tayyorlanadi. Multiplikatorlar o'zlari ishlayotgan maktab va gimnaziyalarda o'qituvchilarning malakasini oshiradilar. Mazkur institutda bag'oyat ko'p informasiyani o'zida mujassam etgan modul tizimlari yaratilgan. Bunday tizimlar nemis tilidan boshqa tillarda ham yaratilgan. Shuningdek, ushbu institut xodimlari Berlin va Brandenburg federal yerlari maktablari uchun modul yaratish maqsadida platformalarni taqdim etadilar. Institutda barcha fanlar bo'yicha o'quv platformalari mavjud. Federal yerlardagi ta'lim massasalari serverlar orqali bog'langan bo'lib, bunday tarmoq Yevropaning nemiszabon mamlakatlarini ham birlashtiradi.

Multimedia va internet tarmog'idan unumli foydalanish, o'qituvchilar malakasini oshirish jarayonida axborot-kommunikasiya va boshqa texnika vositalarini keng qo'llash Germaniyada odad tusiga kirgan. Mashg'ulotlarda ko'rgazmalilik kuchli bo'lib, ta'lim samaradorligini ko'tarishda muhim o'rinn tutadi. O'qituvchilarning slaydlar, mavzuga doir tarqatma materiallar yaratish borasidagi tajribalari ham e'tiborga molik.

Bugungi kunda yurtimizda dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari bilan ta'lim sohasida hamkorlik aloqalari rivojlanib bormoqda. Ta'lim sohasida dunyoning kuchli davlatlari qatoridan o'rin olish maqsadimiz ekan, bunday o'zaro hamkorlik va integrasiya jarayonlari ta'lim tizimida islohotlar samaradorligini oshirishga ta'sir ko'rsatishi, tizimda mehnat qilayotgan pedagog xodimlarni yanada faollikka undashi shubhasiz.

Malaka oshirish jarayonida o'qituvchi ta'limning eng zamonaviy, ilg'or shakl va uslublarini puxta egallashidan tashqari davlatimizning ta'lim sohasida olib borayotgan siyosatining mazmun-mohiyatini, umuman, demokratik islohotlarning ta'lim ravnaqiga ta'sirini ham chuqur bilishi, tafakkuri, mushohada va nutq madaniyatini oshirishga ham intilishi lozim. Chunki ta'limning ikki muhim ko'rsatkichi – sifat va samaradorlik aynan o'qituvchining mahoratiga bog'liqligi sir emas.

Malaka oshirish tizimidagi islohotlarda aynan shu nazarda tutiladi. Bugun o'z malakasini oshirmoqchi bo'lgan o'qituvchi metodik mukammalikka erishish barobarida g'oyaviy va ruhiy tayyorgarligini oshirishi, tafakkurini, ijodkorlik xususiyatlarini boyitib borishi talab etiladi. Hozirgi kunda Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markaziga har oyda o'rtacha 900 nafar tinglovchi malaka oshirish kursiga keladi. Ularning ixtiyorida 48 ta o'quv auditoriyasi, 4 ta o'quv laboratoriysi, 210 o'rinni tinglovchilar turar joyi, 3 ta sport zali va maydoni, 3 ta majlislar va konferensiya zali, amfiteatr, axborot-resurs markazi va 3 ta oshxona mavjud. Ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish maqsadida 342 ta kompyuter, 38 ta videoproyektor va 6 ta elektron doskadan foydalanilmoqda. Markazda 122 nafar pedagog kadr faoliyat ko'rsatadi. Ilmiy salohiyat 48,1 foizni tashkil etadi.

O'qituvchining kasbiy malakasini muntazam oshirib borishi bugun davr taqozosiga aylandi. Lekin malaka oshirish jarayoni – bu o'qituvchining barcha nuqsonlardan xalos bo'lishi degani emas. Bunda "qars - ikki qo'ldan" degan tamoyil mavjud bo'lishi kerak. O'z ustida tinmay ishlamas ekan, o'zini "qiynashni" istamas ekan, o'qituvchi nuqsonlardan qutula olmaydi.

O'qituvchining besh yilda, rahbar xodimlarning esa uch yilda bir marta 144 soat hajmida malaka oshirish amaliyoti o'zini oqlamadi, ya'ni bunday yondashuv davr talablariga mos kelmay qoldi. Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish hududiy markazlari, shuningdek, pedagogik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan malaka oshirishning turli xil muqobil shakllari, pedagogik tayyorgarlik modullarini joriy qilish asnosida "hayot davomida o'qish"



tamoyilini amaliyotga tatbiq etish vazifalari belgilanganlig va ularning hayotga joriy etilishi masalaning yechilishi sari tashlangan muhim qadam bo'ldi.

Kuzatuv va tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugun maktabning o'zi malaka va mahoratni oshirish o'chog'i bo'lishi lozim. Har bir mакtabda darslarga kirish va kuzatish, tahlil qilish, yangi innovation ususllarni keng joriy qilish, o'zaro tajriba almashish, jamoatchilik nazorati, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va ommalashtirish ishlari yuqori saviyada tashkil etilgan bo'lishi kerak, bir so'z bilan aytganda, maktabda hayot "qaynashi" zarur.

O'qituvchining ilmiy tadqiqot ishlariga o'rganishi uning o'z ustida ishlashida muhim omildir. Albatta, agar u davriy nashrlarga maqolalar yozib tursa, loyihamar, grantlarda ishtiroy etsa, ilmiy anjumanlarda ma'ruza qilsa uning mahorati oshib borishi shubhasiz. Ilgari o'qituvchi majburiy mehnatga jalb etilib, o'z ustida ishlashiga vaqt topolmas edi. Endilikda bunga barham berildi, mustaqil ishlashga vaqt ham, imkoniyat ham bor. Buni to'g'ri anglab yetgan o'qituvchilar o'z ustida ishlashga o'rganmoqdalar. Ushbu holatni har tomonlama qo'llab-quvvatlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. - T.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - 2021 yil 26 yanvar. 07/21/4963/0064-son.
2. Pedagogika: ensiklopediya. 2-jild. -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. -B.376.
3. Nazarov Q. Jahan falsafasi qomusi. 1-kitob. T.: "Ma'naviyat", 2019. – B.920.
4. Hikmatlar shodasi / to'plovchi va tarjimonlar A.Raimov, N.Raimova; muharrir A.Ziyadov. T.: "O'zbekiston", 2016. -540 bet.
5. Hikmatnoma: o'zbek maqollarining izohli lug'ati. -T.: O'z. ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990. -40 bet.